UDK: 378: 004(062) +811 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a177**

MINIMAL MATNLARNING KOGNITIV TAHLILI

КОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ МАЛОФОРМАТНЫХ ТЕКСТОВ

COGNITIVE ANALYSIS OF SMALL TEXTS

Raximova Feruzaxon Toxirjon qizi[1] Usmanova Sevara Sultanovna[2]

[1]Raximova Feruzaxon Toxirjon qizi – Farg‘ona davlat universiteti Lingvistika: ingliz tili magistranti

[2]Usmanova Sevara Sultanovna – Farg‘ona davlat universiteti, amaliy ingliz tili kafedrasi mudiri, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Britaniya maktablari vebsayt sahifalarida maktab ma`muriyati tomonidan kirish so‘zi sifatida e’lon qilingan direktorlar nutqi matnlari kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tahlilda 10 ta 2022-yilda https://www.best-schools.co.uk saytida e’lon qilingan Buyuk Britaniyaning eng yaxshi top 100 talik maktablarining birinchi 10 talikka kirgan maktablari saytlari tanlab olindi. Tadqiqot natijalariga kora, har bir maktab direktorining nutqida o‘ziga xos kognitiv xusisyatlar mavjud. Bunday kognitiv xusiyatlarning mavjudligi nutq matnlarining potensial auditoriya, ya’ni ota-onalar yoki vasiylar, shuningdek, o‘quvchilarning bilish jarayonlariga bevosita ta’sir qilgan holda, maktabga bo‘lgan qiziqish va talabning oshishiga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье с когнитивной точки зрения проанализированы тексты выступлений директоров школ, опубликованные администрацией школы на сайтах британских школ. Для анализа были выбраны 10 сайтов 100 лучших школ Великобритании, опубликованных на https://www.best-schools.co.uk в 2022 году. По результатам исследования, речь каждого директора школы имеет свои когнитивные особенности. Наличие таких когнитивных особенностей служит повышению интереса и востребованности школы, если речевые тексты непосредственно воздействуют на познавательные процессы потенциальной аудитории, то есть родителей или представители, а также ученики.

Abstract

In this article, the texts of school head’s welcome published by the school administration on the websites of British schools were analyzed from a cognitive point of view. In the analysis, 10 websites of the top 100 schools of Great Britain published on https://www.best-schools.co.uk in 2022 were selected. According to the results of the research, the speech of each school head has its own cognitive characteristics. The existence of such cognitive features serves to increase the interest and demand for school, if the speech texts directly affect the cognitive processes of the potential audience, that is parents or representatives, as well as students.

Kalit so‘zlar: *kognitiv tilshunoslik, kognitiv tahlil, matnli aspekt, kontekstual aspekt, diskursiv tahlil.*

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, когнитивный анализ, текстовый аспект, контекстуальный аспект, дискурсивный анализ.*

Key words: *cognitive linguistics, cognitive analysis, textual aspect, contextual aspect, discursive analysis.*

KIRISH

Tilshunoslik fanining bugungi taraqqiyoti shu qadar keng qamrovli tus oldiki, endilikda til, til birliklarini antroposentrik nuqtayi nazardan o‘rganish o‘zaro fanlararo yondashuvni taqozo etmoqda. Uzoq yillar davomida gap eng katta til birligi sifatida o‘rganib kelindi. Polyak tilshunosi M.R. Mayenovaning: “Gap tugagan joyda tilshunoslik o‘z kuzatishlarini tugatadi” [Янус Э, 1979: 325] degan fikri ana shu uzoq yillar davomida haqiqat sifatida qarab kelindi. Aslida agar “gap tugagan joyda tilshunoslik o‘z kuzatishlarini tugatsa”, ya’ni faqat gapni kommunikativ birlik deb hisoblasa, bunday tilshunoslik gapning semantik-kommunikativ mohiyatining ichiga bemalol va to‘la kirib borishga qiynaladi. Har qanday alohida olingan gapning lisoniy-mantiqiy mag‘zini chaqib bo‘lmaydi. Har qanday so‘zning ma’nosi aniq bir kontekstda reallik kasb etgani kabi gapning ham boshqa gaplar bilan munosabatidan tashqarida mazmunini xolis baholash mushkul. [M. Yo`ldoshev, S. Muhamedova, M. Saparniyozova, 2020: 15] Ammo XX asr o`rtalariga kelib, gapdan kattaroq yaxlit sintaktik birlik - matn tilshunoslik fanining tadqiqot obyekti sifatida maydonga chiqdi.

XX asr oxirlarida ma’lum bir madaniyat vakili va o‘sha tilda so‘zlashuvchi shaxs sifatida Britaniya maktablari direktorlarining kirish so‘zi sifatida ta`limiy saytlarda e’lon qilingan nutq

matnlari tilshunoslar diqqatini tortdi. Buning sabablariga to‘xtaladigan bo`lsak, bir tomondan bu davrda ingliz tilini o‘rganishda yangi uslubiy paradigmaga ehti-yojning yuqori bo‘lganligi, ikkinchi tomondan esa texnologiyalar ulushi sezilarli darajada ortib borayotgan globallashuv sharoitida ta’lim jarayonida inson resurslari rolini oshirish maqsadining ustunvor bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday yondashuv natijasida tilshunoslikda linvokulturalogiya hamda kognitiv tilshunoslik deb nomlangan yangi ikki yo‘nalish fan sifatida rivojlandi.

Kognitiv tilshunoslik 1970-yillar boshida tilga formal yondashuvdan qoniqmaslik natijasida paydo bo‘lgan tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biridir. O‘z navbatida kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi XIX asr 60-70 yillarida insoniyatning bilimlarni kategoriyalashtish, tizimlashtirish, konseptuallashtirish bilan bog‘liq tadqiqotlari asnosida dunyoga kelgan kognitivistika yoki kognitiv fani bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu fandagi bir yo‘nalish bo‘lib, uning o‘rganish obyekti inson ongi, tafakkuri va ular bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy jarayonlar va holatlar hisoblanadi. Bu – bilimlarni bilish, inson faoliyati jarayonida dunyoni idrok etish haqidagi fandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1989-yilda “Cognitive Linguistics” jurnali bilan birga Xalqaro Kognitiv tilshunoslik jamiyati tashkil etildi. Tilshunos Ronald Langackerning so‘zlariga ko‘ra, aynan shu hodisa “kognitiv tilshunoslikning tug‘ilishi” sifatida belgilangan. [Evans.V, Melanie. G, 2006: 3]. Kognitiv tilshunoslik ilmiy nazariya sifatida emas, balki tilshunoslarning yangicha faoliyati, harakati yoki ma’lum bir tashkil etilgan muassasa sifatida shakllanib bordi. So‘nggi o‘n yilliklarda kognitiv tilshunoslik muammolariga bag‘ishlangan yetarli miqdordagi xorijiy va mahalliy ilmiy ishlar paydo bo‘ldi (T.A. van Deyk, R.Jackendoff, R.Lakoff, L.Talmi, C.Fillmor, U.Chayf, A.Chenki, N.D.Arutyunova, A.N.Baranov, N.N.Beloz-rova, V.Z.Demyankov, D.O.Dobrovolskiy, V.B.Kasevich, A.E.Kibrik, A.V.Kravchenko, E.S.Kubryakova, L.A.Nefedova, E.V.Raxilina, A.P.Chudinovov, Z.D.Papova, Y.S.Stepanov, I.A.Sternin, V.N.Teliya, Sh.Safarov va boshqalar). Tilga kognitiv yondashuv tobora ko‘proq tilga olinmoqda. Bu keng imkoniyatlarni ochib beradi va uning tadqiqotchilariga tilda mavjud bo‘lgan ba’zi hodisalarni mutlaqo boshqa nuqtayi nazardan, ya’ni insonning aqliy faoliyati asosida yotadigan kognitiv (bilish) mexanizmlar nuqtayi nazaridan qarashga imkon beradi.

Keying yillarda rus tilshunosligida kognitiv tilshunoslikka kelajak lingvistikasi sifatida qaraldi. Tadqiqotchilar tomonidan dunyo bilimlari qanday saqlanishi, aloqa jarayonida til qanday tuzilishi haqidagi muhim teoretik qoidalarni o‘z ichiga olgan monografiya, maqola va asarlar nashr etildi va o‘z navbatida bu muammolar kognitiv tilshunoslikning muhim masalalari hisoblangan. Kognitiv tilshunoslik ta’rifi masalasi ham ko‘p olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Ulardan V.A. Maslova “Когнитивная лингвистика” kitobida quyidagicha ta’rif beradi: “Kognitiv tilshunoslik – bu tilga umumiy kognitiv mexanizm, kognitiv vosita, axborotni ifodalash va o‘zgartirish rolini o‘ynaydigan belgilar tizimi sifatida qarovchi lingvistik yo‘nalishdir. Binobarin, kognitiv tilshunoslikning markaziy muammosi – bilim almashish uchun asos sifatida tilning aloqa modelini yaratishdan iboratdir”. [Маслова, 2005: 12] Papova va Sterninning so‘zlariga ko‘ra, kognitiv tilshunoslik bilish jarayonida yuzaga keladigan aqliy jarayonlarni, ong orqali voqelikni anglash, uning natijasida bilish, shuningdek, ularning aqliy tasvirlarining shakllari va turlarini o‘rganadi. [Попова, Стернин 2006: 9]

Kognitiv tilshunoslik tilning asosiy kognitiv jarayonlar hisoblangan kategoriyalashtirish va konseptuallashtirish jarayonlari bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganadi. [Дзюба, 2018: 16]

Dzyuba tomonidan berilgan ushbu ta’rifga ko`ra, kognitiv lingvistika tilni inson ongida sodir bo‘layotgan mental jarayonlarga aloqasi va o‘zaro munosabatlarini o‘rganuvchi tilshunoslikning bir yo‘nalishi sifatida keltirilgan.

N.N.Boldyrevning fikricha, kognitiv tilshunoslik, xususan, kognitiv semantika insonning bilish jarayonlarini ko‘p tarmoqli o‘rganishning asosiy qismlaridan biridir. Muallifning gipotezasiga ko‘ra, bu qarash “inson ongi mexanizmlarini tizimli ravishda o‘rganish zarurligini anglash va ongga yagona ishonchli kirish faqat til orqali ta’minlanishini tushunish” bilan asoslanadi. Bu borada uning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, “inson har gal ma’nolarni qayta shakllantiradi va ularni ifodalash vositalarini tanlaydi. Boshqa narsalar qatori o‘z bayonotlarini tayyor modellar asosida qurmaydi va o‘z til tajribasidan foydalanadi”. [Болдырев, 2018: 11]. Ushbu pozitsiyada insonning aqliy faoliyatini talqin qilishda “ijodkorlik” yoki boshqacha aytganda “kreativlik” tushunchasi qo‘llaniladi. Boldyrevning “Язык и система знаний. Когнитивная теория языка” nomli monografiyasida fazo va vaqt tushunchalari lingvistik konseptualizatsiyaning maxsus shakllari sifatida tavsiflanadi. Ushbu monografiyada tilshunoslik fanida keng qo‘llaniladigan kognitiv tahlil usullaridan tashqari

muallifning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan usullar tavsifi berilgan. Mualliflik usullaridan biri konseptual-taksonomik tahlil va modellashtirish usuli taklif etiladi. Bunda lingvistik taksonomiyalar va leksik quyi tizimlar o‘rtasidagi ierarxik munosabatlarni o‘rganishga asoslangan holda tashkil etish darajasini tahlil qilish va modellashtirish nazarda tutiladi.

D.V.Shapochkin o‘zining dissertatsion ishida siyosatchilar nutqini kognitiv tahlilga tortadi. Uning fikriga ko‘ra, kognitiv tilshunoslikning diqqat markazida nafaqat uning shakli va mohiyatining ajralmas birligi hisoblangan til, balki yuqori birlik - til va haqiqiy dunyoda harakat qiladigan, o‘ylaydigan va biladigan, o‘z turlari bilan o‘rganadigan inson turadi. Shu sababli, tilga kommunikativ yondashuvni antropologik yondashuv deb ta’riflash ajablanarli emas. Bu, xususan, kognitiv tadqiqotlar va ularning natijalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishni ko‘rsatadi. Siyosiy nutqning kognitiv jihatlarini o‘rganish muammosi tilning kognitiv nazariyasi, kommunikativ pragmatika va nutq nazariyasining muammolaridan biridir. Siyosiy aloqa tadqiqotchisi: “Har qanday holatda ham, ma’ruzachilar va tinglovchilar bir-birini qanchalik to‘g‘ri tushunishini bilishi kerak”, - deydi. [Шапочкин, 2005, 8]. Bunda inson muloqotining aqliy holatini tushunishga e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli tushunish nafaqat odamlar siyosiy bayonotdagi so‘zlar va iboralarning ma’nosini tushunishga harakat qilganda, balki, avvalambor, suhbatdoshning niyatiga, u qanday nutq harakatlarini ifoda etishni istaganiga e’tibor qaratganda ham amalga oshiriladi.

Ushbu maqolada Britaniya maktablarining ta’limiy saytlarida e’lon qilingan rahbariyatning murojaat nutqi matnlari kognitiv tahlil qilinadi. Bunda tahlil va sintez metodidan, til faktlarini aniq kuzatishdan ularni tizimlashtirish va umumlashtirishga, so‘ngra o‘rganilayotgan hodisalarning sababi to‘g‘risida taxminlarni ilgari surishga imkon beradigan induktiv metoddan, shuningdek, kognitiv diskursiv-usullar yordamidagi tahlillardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Lisoniy faoliyat – kognitiv faoliyatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, bu ikki faoliyat o‘zaro bir-biri bilan bevosita bog‘liqdir. Binobarin, kognitiv tilshunoslik, kognitologiyaning boshqa sohalaridan farqli o‘laroq, insonning qanday qilib til tizimi va uni harakatga keltiruvchi omillarni o`zlahtirishi hamda ulardan foydalanish qoidalarini qay yo‘sinda tartibga solish masalalari bilan shug‘ullanadi. Shu bilan birga, tafakkur faoliyatida til hodisalarining o‘rni, qanday vazifalarni bajarishi bilan ham qiziqadi. Kognitiv tilshunoslar til va aqliy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarning yuzaga keltiruvchi sabablarini qidiradi va bu sabablar oqibatida yuzaga kelgan muloqot matnlarini, ya’ni lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, ularni tahlil qilishga harakat qiladi. [Сафаров Ш, 2006: 75]. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, kognitiv tilshunoslik inson lisoniy faoliyatini sabab va oqibat bog‘liqligida tadqiq etuvchi, “tushuntiruvchi” fan sohasidir. [Демьянков, 1994: 17]

Umuman olganda, “nutqni tahlil qilish” atamasi ilk bor Z.Z.Xarris tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan. Lekin gollandiyalik tilshunos olim T.A.Van Deyk diskursiv tahlil asoschisi hisoblanadi. Shunga qaramasdan ko‘pchilik olimlar uning diskursiv tahlilga bo`lgan yondashuvlarini izohlamaydilar.

T.A.van Deyk diskursiv tahlil ikkita aspektni o‘z ichiga olishini ayatib o‘tadi. Birinchisi matnli tahlil bo‘lib, bunda matnni til sathlari bo‘yicha, ya’ni fonetikadan tortib to sintaktik sathga qadar tarkibiy tahlil qilish nazarda tutiladi. Ikkinchisi esa kontekstual tahlil hisoblanib, bunda nutqiy vaziyat, nutqning maqsadi va qabul qilinishdagi kognitiv va pragmatik jarayonlarga bevosita bog‘likligi bilan xarakterlanadi. T.A.van Deykning diskursiv tahlil doirasidagi nazariyalariga asoslangan holda, D.V.Shapochkin diskursning kognitiv tahlilini sxematik tarzda tuzishga harakat qiladi. [Шапочкин, 2013: 101]

Diskursning kognitiv tahlili:

1) Matnli aspekt:
a) fonetik daraja;
b) grafik daraja (yozuv);
c) morfologik;
d) gap sintaksisi
e) semantika va leksika
f) makrostruktur daraja
g) ritorik aspekt
2) Kontekstual aspekt:

a) makon
b) zamon
c) voqea yoki harakat
d) ishtirokchilar faoliyat sohasi
e) ishtirokchilarning roli
f) ijtimoiy munosabatlar
g) ishtirokchilarning kognitiv xususiyatlari

Shunday qilib, kognitiv tahlilning matnli jihati matnni fonetikadan to sintaktik tahlilgacha bo‘lgan barcha sathlarda tarkibiy tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bunda fonetik sath doirasi urg‘u, intonatsiya, tovush balandlashishi, tushishi, temp va boshqa fonetik xususiyatlarni o‘rganish matnni tushunishga yordam beradi. Misol uchun, urg‘u yordamida muallif ba’zi bayonotlarni ta’kidlashi yoki aksincha, xiralashtirishi mumkin. Bundan tashqari, diskursning grafik tahlili mavjud bo‘lib, bunda ma’lum ma’lumotga e’tiborni jalb qilish uchun maxsus vizual vositalar mavjud. Xususan, biz tadqiq qilayotgan maktab ma’muriyati murojaatlari ham video, ham matnli tarzda vebsaytlarda mavjud. Video shakldagi murojaatlardan fonetik sathni tahlil qilishda, matnli murojatlardan esa visual vositalarni aniqlashda foydalandik. Visual vositalar deganda matnning qoraytirib yozilishi, tagiga chizib, yoki rangli harflarda yozilishi kabi holatlarini tushunish mumkin. Quyidagi misolda North London Colligiate School o‘rta maktab direktorining murojaat nutqini ko‘rishimiz mumkin:

“WELCOME FROM THE HEAD OF JUNIOR SCHOOL

As your daughter embarks on her educational journey at NLCS, we will support her in developing a love of learning, and questioning mind. Our ambitious and exciting curriculum, supported by our strong pastoral system, will encourage her to develop her own unique talents and interests.

The Junior School is housed in its own purpose-built building within the magnificent grounds of Canons where your daughter will benefit from the wonderful facilities, including the swimming pool, performing arts centre and music school.

“Passion for learning starts on day one of your daughter’s time here.”

(Mrs Sarah Cartwright-Styles, Head of Junior School)

Murojaat sarlavhasi katta shriftda va qoraytirib yozilganini ko‘rish mumkin. Birinchi ikkita gap shrifti keying gaplar shriftiga qaraganda kattaroq. Bunda muallif boshidanoq o‘quvchining diqqatini to‘liq o‘ziga qaratishni maqsad qilgan. Matndagi *“Passion for learning starts on day one of your daughter’s time here”* – Qizingizning o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi bu yerdagi vaqtining birinchi kunidan boshlanadi- jumlasi esa alohida qo‘shtirnoq ichiga olingan va yozma holatda ajratib yozilgan. Bunda ham ota-onalarning qizlarini o‘qitishga bo`lgan ishtiyoqini oshirish va e’tiborini jalb qilish, shuningdek ularning ongiga, bilish jarayonlariga yanada chuqurroq ta’sir o‘tkazish uchun vosita sifatida foydalanilgan.

Kognitiv tahlilning kontekstual asosini esa nutqiy jarayon qaysi zamonda, qaysi makonda yuz beryotganligi, qanday voqea-hodisa yuz berayotganligi va nutq ishtirokchilari tashkil etadi. Yana ham batafsil tahlilga kirishsak, ishtirokchilarning faoliyat sohasi, ularning nutqdagi roli va ijtimoiy munosabatlari chuqur ahamiyat kasb etadi.

Shapochkin o‘zining ilmiy izlanishlari natijasida ma’lum auditoriyaga yo‘naltirilgan nutqning bir nechta kognitiv jihatlarini aniqlaydi. [Шапочкин, 2005]. Ular murojaat, hissiyot, nutq strategiyalari, maqsadli yo‘nalish kabilardir.

1) Murojaat. Ushbu jihatda ma’ruzachiga tinglovchilar, axborotni qabul qiluvchilar bilan yaqin aloqa o‘rnatishga imkon beradi. Ko‘pincha murojaat ma’ruzachining ijobiy munosabatini aks ettiradi, uning omma oldida o‘zini tutish, u bilan muloqot qilish, e’tiborini jalb qilish qobiliyatini ta’kidlaydi. Biz ko‘rib chiqayotgan ma’muriy murojaat materiallarida ham bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.

*“Welcome to City of London School for Girls. Come on into our website and enjoy discovering what makes this such an exhilarating place to learn and work”. (*City of London qizlar maktabiga xush kelibsiz. Bizning websaytimizga kiring va bunday ko`ngilochar joyning o‘qish va o‘rganish uchun nimalar qilishini kashf qilib rohatlaning).

2) Emotsionallik (ma’ruzachi tomonidan) - hissiylikning namoyon bo‘lishi ommaviy nutq uchun ham xosdir, bu ma’ruzachining kayfiyatini aks ettiruvchi muhim kognitiv-ritorik jihat bo‘lib, u o‘z navbatida tinglovchilarga yetkaziladi. Nutqda hissiyot ijobiy va salbiy ma‘nolarga ega bo‘lgan

tegishli leksik birliklar, "ichki" predikatlar, modal fe'llar, shuningdek, stilistik vositalar: metafora, epithets, taqqoslash va boshqalar bilan ifodalanadi.

*"Being in the heart of the capital and right alongside all the cultural heritage of the Barbican and the professional powerhouses of the City defines the school and is part of what makes it so exciting, but the real excitement is found within the classrooms". (*Poytaxtning yuragida joylashgan va Barbikanning barcha madaniy merosi va shaharning professional kuchlari bilan bir qatorda bo'lish maktabni belgilaydi va uni juda hayajonli qiladigan narsaning bir qismidir, lekin haqiqiy hayajon sinfxonalarda topiladi).

Ushbu nutq parchasi City of London School for Girls maktabi direktori Jenny Brown ga tegishli bo'lib, bu qismda bevosita auditoriyaning maktabga nisbatan hissiyotlarini uyg'otish maqsadida hissiy bo'yoqdagi so'zlardan (exciting, excitement) va metaforadan (the heart of the capital) foydalanilgan.

3) Nutq strategiyalari (ma'ruzachi tomonidan) – ommaviy nutqlarda, odatda, umumlashtirish, misol keltirish, o'zgartirish, kuchaytirish, (aniq imtiyozlar), takrorlash, contrast kabi kognitiv nutq harakatlaridan faol foydalanadilar. Ularning qo'llanilishi ma'ruzachiga tinglovchilar bilan muloqot qilish, ularning e'tiborini jalb qilish va ongiga ma'lum bir tarzda ta'sir o'tkazish imkonini beradi.

"This is a place of brave academic enquiry, of intellectual wonder and of fiercely independent thinkers. It's hard to convey the excitement of the learning in this school, but whether it's recent year 7 projects on freedom, a year 12 bounding excitedly into my office with news of her publication in a national medical periodical or hearing about the sixth form genetic engineering project or the pupil talking about her published fanfiction, I am daily struck by its scholarly energy. This is a place where ideas in these rooms become almost become bigger than the people in them, where the structures of learning can become an escape from the self and identity. City is a school which never places any artificial division on our formal academic and co-curricular provision, but celebrates the wild adventure and the fun of learning wherever it is found". (Bu – jasur akademik izlanishlar, intellektual hayrat va teran mustaqil fikrlovchilarning joyi. Bu maktabda o'qishning hayajonini yetkazish qiyin, lekin yaqinda bo'lgan erkinlik bo'yicha 7 ta loyiha, milliy tibbiyot davriy nashrida maqolasi chop etilgani haqidagi xabar bilan mening ofisimga hayajon bilan kirib kelishi yoki genetik muhandislik bo'yicha oltinchi sinf loyihasi haqida eshitish yoki o'quvchi uning nashr etilgan fanfigi haqida gapirsa, men har kuni uning ilmiy energiyasidan hayratlanaman. Bu xonalardagi g'oyalar ulardagi odamlardan deyarli kattaroq bo'ladigan joy, bu erda o'rganish tuzilmalari o'zlik va o'ziga xoslikdan qochishga aylanishi mumkin. Siti - bu maktab bo'lib, u hech qachon bizning rasmiy o'quv va qo'shma o'quv dasturida hech qanday sun'iy bo'linishni qo'llamaydi, lekin u qayerda bo'lmasin, yovvoyi sarguzasht va o'rganish zavqini nishonlaydi).

Ushbu nutqning davomida aynan ta'kidlash maqsadida takror (This is a place… This is a place) dan, shuningdek, misol keltirish kabi kognitiv harakatlardan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin.

4) Maqsadli yo'nalish (ommaviy nutq)- ma'ruzachi tomonidan tinglovchilarga ularning jamoat manfaatlari va qadriyatlariga (xavfsizlik, erkinlik, millat farovonligi) ta'sir ko'rsatadigan ma'lum ma'lumotlarni yetkazish va tushuntirishni nazarda tutadi. Biz tahlil qilayotgan nutq materiallarida, yuqoridagilardan tashqari, boshqa maktablardan ko'ra qanday afzalliklarga va imkoniyatlarga egaligi, kelajakdagi qilinishi ko'zda tutilgan harakatlar haqida ma'lumotlar uzatiladi. Quyida Westminister maktabi direktori **Dr Gary Savage** nutqidan olingan parchani ko'raylik:

"The School is renowned for its culture of music and theatre, and pupils are encouraged to take music lessons and to join orchestras, choirs and theatre projects. Whether it be a night-time opening of the School's observatory, a lecture with an expert linguist, artist or sports personality, choral evensong in Chapel or a product design workshop, there is much going on throughout the year. Pupils can attend debating or MUN clubs, take part in inter-school general knowledge competitions, compete in an inter-House chess competition or play pool in their House common room. There are options available to each and every pupil, at any time of the day, to help supplement their academic education and to ensure that their development needs are met" **(Head master Dr Gary Savage)**

(Maktab musiqa va teatr madaniyati bilan mashhur bo‘lib, o‘quvchilar musiqa saboqlarini olishga, orkestrlar, xorlar va teatr loyihalariga qo‘shilishga da’vat etiladi. Bu maktab rasadxonasining tungi ochilishi, mutaxassis tilshunos, rassom yoki sportchi bilan ma’ruza bo‘ladimi, Chapeldagi xor qo‘shig‘i yoki mahsulot dizayni bo‘yicha ustaxona bo‘ladimi, yil davomida ko‘p narsa bo‘ladi. Talabalar munozara yoki MUN klublarida qatnashishlari, maktablararo umumiy bilimlar musobaqalarida qatnashishlari, uylararo shaxmat musobaqalarida qatnashishlari yoki uyning umumiy xonasida bilardo o‘ynashlari mumkin. Har bir o‘quvchiga kunning istalgan vaqtida akademik ta’limini to‘ldirish va rivojlanish ehtiyojlari qondirilishini ta’minlash uchun imkoniyatlar mavjud).

Mana bu parchada maqsadli yo‘nalishni aniq ko`rishimiz mumkin. Bunda auditoriyaning madaniyat va sport borasidagi manfaat va qadiryatlariga mos kelishi, qanday ishlar amalga oshirilishi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

XULOSA

Shunday qilib, ma’muriy murojaatlarning kognitiv xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz, quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- Britaniya maktablari ta’limiy saytlarida direktorlarning kirish so‘zi sifatida e’lon qilingan nutqlari potensial auditoriyaning bilish va anglash jarayonlariga bevosita ta’sir qilish maqsadida ham video, ham matnli ko‘rinishga ega;

- Kognitiv tahlil nutq tahlilining zamonaviy alohida yondashuvlardan biri bo‘lib, u matnli va kontekstual jihatlarni o‘z ichiga oladi. Matnli yondashuvda matn til sathlari bo‘yicha tahlil qilinsa, kontekstual yondashuvda nutq ishtirokchilarining ma’lum makon-zamondagi hatti-harakatlari, nutq ishtirokchilarining faoliyat sohasi, nutqdagi ro‘li va ijtimoiy munosabatlari e’tiborga olinadi.

Shuningdek, ko‘pchilikka qaratilgan nutqda murojaat, emotsionallik, nutq strategiyalari va maqsadli yo‘nalish singari kognitiv jihatlar mavjud bo‘lishi kerak. Bu jihatlar nutqning auditoriyaga oson yetib borishi va tushunilishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyozova. Matn lingvistikasi. – Toshkent.: 2020, – B. 184. (M. Yuldoshev, S. Muhamedova, M. Saparniyozova. Text Linguistics. – Tashkent: 2020, –P. 184)
2. Vyvyan Evans and Melanie Green. Cognitiv Linguistics an introduction. – Edinburgh University Press, 2006. – P. 812. (Vyvyan Evans va Melanie Green. Kognitiv tilshunoslik kirish. – Edinburg universiteti nashriyoti, 2006. – B. 812)
3. Болдырев Н. Н. Язык и система знаний. Когнитивная теория языка. – М.: Издательский Дом ЯСК, 2018. – С.480. (Boldirev N. N. Til va bilimlar tizimi. Tilning kognitiv nazariyasi. – M.: YASK nashriyoti, 2018. – B. 480). (Boldyrev N. N. Language and knowledge system. Cognitive theory of language. – M.: Publishing House YASK, 2018. – P. 480)
4. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретующего подхода // Вопросы языкознания, 1994, №4. – С. 17-33. (Demyankov V.Z. Kognitiv tilshunoslik o‘ziga xos sharhlovchi yondashuv sifatida // Tilshunoslik masalalari, 1994 yil, 4-son. – B. 17-33). (Demyankov V.Z. Cognitive linguistics as a kind of interpretive approach // Questions of Linguistics, 1994, No. 4. – P. 17-33)
5. Дзюба, Е. В. Когнитивная лингвистика: учебное пособие для высших учебных заведений / Е. В. Дзюба; Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург.: 2018 – С. 280. (Dzyuba, E. V. Kognitiv tilshunoslik: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / E. V. Dzyuba; Ural. davlat ped. un-t. – Yekaterinburg: 2018 yil – B. 280). (Dzyuba, E. V. Cognitive linguistics: a textbook for higher educational institutions / E. V. Dzyuba; Ural. state ped. un-t. – Yekaterinburg.: 2018 – P. 280)
6. Маслова, В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2005, –С.254. (Maslova, V.A. Kognitiv tilshunoslik. – Minsk: TetraSystems, 2005, –B. 254). (Maslova, V.A. Cognitive linguistics. – Minsk.: TetraSystems, 2005, – P.254)
7. Попова, Стернин. Семантико-когнитивный анализ язык. Монография. — Воронеж.: Истоки, 2006. — С. 226. (Popova, Sternin. Tilning semantik-kognitiv tahlili. Monografiya. – Voronej: Istoki, 2006. – B. 226). (Popova, Sternin. Semantic-cognitive analysis of language. Monograph. – Voronezh.: Istoki, 2006. – P. 226)
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах.: Сангзор, 2006 – B. 92. (Сафаров Ш. Когнитивная лингвистика. –Жиззах.: Сангзор, 2006. – 92 стр). (Safarov Sh. Cognitive linguistics. –Djizzakh.: Sangzor, 2006 – P. 92)
9. Шапочкин Д. В. Метод когнитивного анализа дискурса в лингвистике. Вестник Челябинского государственного университета. 2013. № 10 (301). Филология. Искусствоведение. Вып. 76. – С. 101–107. (Shapochkin D. V. Method of cognitive discourse analysis in linguistics. Bulletin of the Chelyabinsk State University. 2013. No. 10 (301). Philology. Art history. Issue. 76. – P. 101-107)
10. Шапочкин.Д.В. Когнитивные аспекты политического дискурса: на материале британских, американских и немецких публичных политических речей. аф. реферат. дисс. Тюмен.: 2005, – С. 244. (Shapochkin. D.V. Cognitive aspects of political discourse: on the material of British, American and German public political speeches. af. abstract. diss.: Tyumen.: 2005, –P 244)
11. Янус Э. Обзор польских работ по структуре текста / Синтаксис текста. –М.: Наука, 1979, С. 325. (Janus E. Review of Polish works on text structure / Text syntax. –M.: Nauka, 1979, –P. 325.)

REFERENCES

1. City of London School for Girls URL: https://clsg.org.uk
2. Westminster School URL: https://www.westminster.org.uk/
3. Guildford High School URL: https://www.guildfordhigh.co.uk/
4. King's College School - Wimbledon URL: https://www.kcs.org.uk/
5. City of London School for Boys URL: https://www.cityoflondonschool.org.uk
6. Wycombe Abbey School URL: https://www.wycombeabbey.com
7. North London Collegiate School URL: https://www.nlcs.org.uk/
8. Sevenoaks School URL: https://www.sevenoaksschool.org
9. Highgate School URL: https://www.highgateschool.org.uk
10. Oxford International College https://www.oxcoll.com
11. https://www.best-schools.co.uk